

52. Bo'lishning geometrik ma'nosi



Yondosh mavzu:
ijodiy kasblar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Florist gullardan guldasta yasashi kerak.
a) Agar u har bir guldastaga 3 tadan pion qo'shsa, nechta pion ortib qoladi?



- b) Har bir guldastaga 5 tadan freziya qo'shilsa, nechta guldasta chiqadi?




2. Landshaft dizayneri bog'dagi yo'lak yonini chimzor bilan bezatyapti. Yo'lakning uzunligi 300 m bo'lib, har 40 metrda bitta guldon turishi kerak. Bog'ning chizmasini chizib, qolgan guldonlar turadigan joylarni belgilang. Oxirgi guldondan yo'lakning oxirigacha necha metr qoladi?




3. Rassom devorni takrorlanadigan naqsh bilan bezayapti. Takrorlanadigan har bir bo'lakning – rapportning uzunligi 3 m. Agar devorning uzunligi 73 metr bo'lsa, naqsh necha marta takrorlanadi? Bu naqsh devorning qancha qismiga yetmay qoladi?

52. Bo'lishning geometrik ma'nosi

Qoldikli bo'lishning geometrik ma'nosi
 c to'liqsiz bo'linma a uzunlikdagi kesmaga necha marta b uzunlikdagi kesma joylashishini ko'rsatadi. a kesmaning qolgan qismi uzunligi aynan r qoldiqqa teng.



4. Rasm bo'yicha, bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma va qoldiqni toping.



5. «Bahor» raqs ansamblida 60 kishi bor. Ansambl rahbari qatnashchilarni 3, 4, 6 va 8 guruhga bo'lmoqchi. Qaysi holatda ansamblni teng guruhlariga bo'lishning iloji yo'q?



6. Quyidagilarni toping:

- 8 ga bo'lganda to'liqsiz bo'linma 24 ga, qoldiq esa 3 ga teng bo'lsa x sonini;
- 7 ga bo'lganda to'liqsiz bo'linma 132 ga, qoldiq esa 5 ga teng bo'lsa y sonini.



7. Rassomning palitrasida 7 ta turli ranglar bor. U 2 tadan rangni aralashtirib, nechta turlicha yangi ranglar hosil qila oladi?

52. Bo'lishning geometrik ma'nosi




8. «Nilufar» degan tasmadagi takrorlanuvchi bo'lakning uzunligi 7 cm, eni 9 cm. 2 m tasmaga nechta butun nilufar sig'adi?




9. Rassom bu yerda nechta uchburchak chizgan?



10. Bu rasmda nechta kvadrat bor?



11. Rasm bo'yicha bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma va qoldiqni toping.



12. Quyidagilarni toping:

- 7 ga bo'lganda to'liqsiz bo'linma 380 chiqadigan, qoldiq 5 ga teng bo'ladigan x sonni;
- 9 ga bo'lganda to'liqsiz bo'linma 103 chiqadigan, qoldiq 1 ga teng bo'ladigan y sonni.